



XITOIY TILIDA SUN'IY INELLEKT (SI) TERMINOLOGIYASI

Eshboyeva Shodiya Vohid qizi¹

O'zDJTU Lingvistika xitoy tili yo'nalishi

1-bosqich magistranti, shodiyaalimova@gmail.com,

Shasaidova Lola Shamaqsudova²

O'zDJTU Xitoy tili nazariyasi va amaliyoti

kafedrasi Pedagogika fanlari bo'yicha, falsafa doktori PhD v.b dotsent.

<https://www.doi.org/10.37547/ejsspc-v03-i02-p1-21>

ARTICLE INFO

Received: 28th January 2023

Accepted: 07th February 2023

Online: 08th February 2023

KEY WORDS

SI, termin, terminologiya, terminning semantik tarkibi.

ABSTRACT

Fan-texnika jadal rivojlanib borayotgan bugungi davrida hayotimizni sun'y intellektlarsiz tassavur qilish qiyin. Sun'y intellekt nafaqat axborot texnologiya, balki ruhshunoslik, falsafa, lingvistika va boshqa sohalarni ham o'z ichiga olgan keng fan sohasini anglatadi. Bilamizki, terminologiya tilshunoslikning terminlarni o'rganuvchi sohasi hisoblanadi. Mazkur maqolada terminologiya sohasi va xitoy tilida SI terminlari ularning struktur-semantik xususiyatlari haqida ma'lumotlar berildi.

Terminologiya bevosita tilshunoslikning leksikologiya bo'limi bilan bog'liq soha hisoblanadi. Termin so'zi lotincha "terminus" so'zidan olingan bo'lib "chegara" degan ma'noni anglatadi. Har qanday tilning terminologik tizimining muhim jihati uning tushunchalarni to'g'ri tasniflay olishi va o'sha til xususiyatlaridan kelib chiqib muqobil variantni tanlash hisoblanadi. "Terminologiya, atamalarni ishlab chiqish tizimi va bilimlarni uzatishda muhim vosita, til aktivlarini boshqarishda va korxonalarini xalqarolashtirish uchun til strategiyasida asosiy rol o'ynaydigan vosita". [1:22.] Vinogradovning fikriga ko'ra terminlarni yaratish va belgilashning ikki tomoni ikki nuqtai nazari mavjud: "til strukturasi va tushunish, semantik shartli ravishta ilmdagi u yoki bu tushunish sistemasining rivojlanishi" [2:3].

Tilshunoslikda terminlarning o'zgarishi hamda yangi terminlarning paydo bo'lishi fan va texnika taraqqiyoti bilan uzviy bog'liqdir. Bu haqda tilshunos olim L.I.Bojno quyidagilarni ta'kidlaydi: "Texnika taraqqiyoti ta'sirida terminologiya o'zaro aloqador ikki qonuniyat asosida, birinchidan, ilmiy-texnika progressi qonuniyatlari bilan, ikkinchidan, til rivojlanishining umumiy qonuniyatlari bilan bog'liq ravishda o'zgarib boradi" [3:103].

Tilshunos olimlar terminlarning quyidagi belgilarini sanab o'tishadi:

- 1) termin bir ma'noli tendentsiyaga ega;
- 2) termin aniq, nominativ funktsiyaga ega bo'lib, unga emotsionallik, ekspresivlik funktsiyalari xos emas. Termin o'zining bu xususiyatini jumalarda ham, matnlardan tashqarida ham saqlaydi;
- 3) terminning ma'nosi tushunchaga tengdir;
- 4) termin stilistik jihatdan neytraldir;
- 5) terminologik leksika alohida sistemadir [4:12];



Mana shu yuqorida keltirilgan xususiyatlardan kelib chiqib biz terminlar va oddiy soʻzlarni, bundan tashqari bir paytning oʻzida ham termin ham oddiy soʻz sifatida qoʻllaniladigan soʻzlarni farqlab olishimiz mumkin.

Globalashuv davri boʻlgan bugungi kunimizda zamonaviy sohalar, fan va texnika juda tez rivojlanmoqda. Buning natijasida yangi terminlar paydo boʻlmoqda. Jumladan, tadqiqot uchun tanlagan mavzuyimiz sunʼiy intellekt terminlari hozirgi davrda insonlar tez tez uchratayotgan yangi terminlarga misol boʻla oladi. Asosan terminlar boshqa tillardan soʻz olish va ichki soʻz yasash hisobiga boyib bormoqda.

Xitoy tilida SI terminlariga toʻxtaladigan boʻlsak, bu borada ilmiy izlanishlar kam qilinganligi sinologiyada bu hali yangi va oʻrganilishi kerak boʻlgan mavzulardan biridir.

Tanlangan mavzuning dolzarbligi, bir tomondan, uning shubhasiz umumiy nazariy va amaliy ahamiyati, ikkinchi tomondan, uning sinologiyada rivojlanmaganligi bilan belgilanadi.

Sunʼiy intellekt (SI) oʻzi nima? Bu savolga T.A.Xoʻjaqulov, N.T.Malikovalarning “Sunʼiy intellekt” darsligida quydagicha taʼrif berilgan: “Sunʼiy intellekt-inson inellektining baʼzi vazifalarini oʻzida mujassamlashtirgan avtomatik va avtomatlashtirilgan tizmlar xususiyati”[5:4]. SI allaqachon bizning hayotimizga kirib boʻlgan. Misol uchun, bugun oddiygina qoʻl telefoningizni yoqib YouTube ilovasiga murojaat qilsangiz sizga qiziqarli boʻlgan mavzulardagi kontentlarni oʻz oʻzidan chiqarib beradi. Bu hodisa bevosita SI yordamida toʻplangan maʼlumotlar orqali qilinadi.

SI xitoy tilida 人工智能(Réngōng zhìnéng), terminologiya esa 术语 (Shù yǔ) deyiladi.

Demak SI terminlari 人工智能术语 (Réngōng zhìnéng shù yǔ) deyiladi. Imkon qadar terminologiya va uning tarjimalarida geografik, madaniy, tarixiy va individual xususiyatlarni saqlab qolish juda muhimdir. Tarjima qilinayotgan tilda terminga mos soʻz boʻlmasa koʻpincha kalkalash usulidan foydalangan holda oʻsha termin tarjima qilinayotgan tilga oʻgirilmoqda va tarjimada har doim ham soʻzma soʻz tarjima qilish maʼnoni toʻliq aks ettirmaydi. Bu esa terminlar tarjimasidagi katta muammolardan biri hisoblanadi. Avvalo biz tarjima qilayotgan terminimizni qaysi sohaga oidligidan kelib chiqib unga maʼnoviy jihatdan mos keluvchi soʻzni topib tarjimani moslashtirishimiz kerak boʻladi. Masalan, SI ga oid terminlardan bir nechtasini koʻrib oʻtamiz:

人工智能语言[7]Réngōng zhìnéng yǔ yán- SI tili;

溯因推理Sù yīn tuī lǐ- abduktiv fikrlash;

对抗性学习Duì kàng xìng xué xí- raqib mashina oʻrganish, qarama qarshi taʼlim;

情感计算Qíng gǎn jì suàn- affektiv hisoblash (inson his tuygʻularini oʻrganib taqlid qilish);

用于数据分析 的人工智能Yòng yú shù jù fēn xī de réngōng zhìnéng- maʼlumotlarni analiz qilish uchun SI;

Yuqoridagi xitoy tilida keltirib oʻtilgan SI terminlari har bir lisoniy birlik kabi, oʻziga xos qurilish sxemasi va oʻziga xos semantik mazmuniga ega. Terminning semantik tarkibida “mazmun (oʻz maʼnosi) va ichki shakl (maʼno, turtki, yaʼni mazmun, maʼnoning ifodalanish usuli)” boʻladi [6:165]. Terminning maʼnosini tahlil qilish orqali unda maxsus tushunchaning muhim belgilarini oʻzida mujassam etgan atamalar majmuasini aniqlash imkonini beradi.



Uning ma'nosining har bir komponenti so'zlovchilar ongida "denotatsiyaga (terminning to'g'ridan to'g'ri asosiy ma'nosi yoki lug'at ta'rifi) obyektiv xarakterli bo'lgan yoki unga ushbu lisoniy muhit tomonidan berilgan va shuning uchun har bir so'zlovchiga nisbatan obyektiv bo'lgan o'ziga xos xususiyatlarni aks ettiradi" [8: 29].

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, fan-texnika va barcha sohalar rivojlanishda davom etar ekan terminlar ham ko'payadi va yangi terminlar vujudga keladi. Shu bilan birga biz terminlar tarjimasini va tuzilishi jarayonida vujudga kelayotgan muommalarni bartaraf etish uchun doimo o'rganish va harakatda bo'lishimiz lozim. Shundagina terminalogiya sohasi rivojiga oz bo'lsa ham, o'z hissamizni qo'shgan bo'lamiz

References:

1. Saihong Li, William Hope. Terminology translation in Chinese context and practice. New York 2021;
2. В.Виноградов, «Вопросы языкознания» Москва 2000;
3. Воджно Л.И. Научнотехническая
4. терминология из объектов изучение закономерностей развитие языка // Филологическая наука. 1971.
5. <https://hozir.org/h-jamolxonov.html?page=12>
6. Т.А.Хо'jaqulov, N.Т.Маликова. Sun'iy intellekt. Toshkent 2020;
7. Л.М.Алексеева, Деривационный аспект исследования термина и процессов терминологического образования: на материале научно-технической терминологии русского и английского языков тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 2019.
8. www.baidu.com
9. Лейчик В. М. Исходные понятия, основные положения, определения современного терминоведения и терминографии / В. М. Лейчик // Вестник Харьковского политехнического университета 2000.